

“ANTROPONIMLAR LINGVISTIKA OBYEKTI SIFATIDA”

*Qarshi davlat universiteti
MAGISTRATURA bo'limi LINGVISTIKA: o'zbek tili yo'nalishi
1-kurs magistranti Shodmonqulova Orasta*

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslikning eng asosiy bo'limi bo'lgan onomastikada antroponimlarning o'rganilishi, uning leksik tizimdagi o'rni haqida izoh berilgan va mulohazalar bildirilgan. Antroponim tushunchasining tilshunoslikda paydo bo'lishi tarixi bo'yicha ayrim ma'lumotlar ifodalangan va shuningdek, uning nutqdagi vazifasi belgilangan.

Kalit so'zlar: antroponim, antroponimika, onomastika, til, madaniyat, lingvistik, ismshunoslik, etimologiya.

O'tgan asrning 60-yillari boshlarida onomastika tilshunoslik fanining eng faol o'rganilgan sohalaridan biriga aylandi. Ilmiy izlanish jarayonida tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlandi, hozirgi paytda esa onomastika fanining uslubiy qo'llanilishini tadqiq etuvchi soha faol rivojlanmoqda. Zero, onomastika boshqa bir qator lingvistik fanlar, jumladan, sotsiolingvistika, onomasiologiya, matn lingvistikasi, stilistika, kommunikativ lingvistika bilan o'zaro aloqadorlikdagi fan hisoblanadi.

Tilning onomastika sohasining katta qismini antroponimlar tashkil qiladi. Antroponim – bu insonni belgilash uchun xizmat qiladigan shaxs (atoqli) nomi. Antroponim, deb yozadi Azim Hojiev, (anthropos-odam+onuma-nom). Kishining atoqli oti, ism. Antroponomika. Leksikologiyaning, (onomastikaning) kishi otlarini (ismlarini) o'rganuvchi bo'limi.

Kishi ismlaridan tashqari, familiyalar, otasining ismi (yoki patronimlar), laqablar, taxalluslar, kriptonimlar (yashirin ismlar) ham mavjud bo'lib, ularning barchasi inson identifikatorlari hisoblanadi. Antroponimlarning barcha turlari shaxsni atash va unga murojaat qilish imkoniyatidan foydalana olish vazifasini bajaradi.

Antroponim belgi bo'lganligi uchun ma'noga ega. Bu ma'no bir necha belgilar bilan ifodalanadi:

1. Antroponimning tashuvchisi ayrim boshqa bir ob'ekt emas, balki inson ekanligini tushunish.
2. Biror kishining qaysi etnik guruhga mansubligi yoki qaysi bir millatga tegishli ekanligini ko'rsatish.
3. Insonning qaysi genderga qarashlilikini aniqlash: erkak yoki ayol. Antroponimlarning vazifalariga kelsak, olimlar turli funksiyalarini e'tirof etadi.

Misol uchun, V.D.Bondaletov “Rus onomastikasi” asarida antroponimlarning nominativ, aniqlash va farqlash kabi asosiy vazifalarini belgilab berdi. U

antroponimlarning qo'shimcha funksiyalariga ijtimoiy, hissiy, akkumulyativ, ko'rsatuvchi, maqsadli, ifodali, estetik va uslubiy vazifalarini kiritdi. V.I.Suprun antroponimlar aloqalarni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi¹⁴, deb hisoblaydi.

Antroponimlarni tadqiq maqsadiga qarab bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Jumladan, milliy, hududiy, ijtimoiy, yoshga oid, jins (gender), diniy. Masalan, yuqorida keltirilgan xususiyatlarga ko'ra Aziz antroponimi jinsi bo'yicha erkak va etnik tomonidan o'zbek tilida so'zlashuvchi jamoaning a'zosi. Antroponimlarning boshqa vazifalariga tilning akkumulyativ, xalqning madaniyati haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi vazifasini kiritish mumkin. A.V.Suslova va A.V.Superanskaya "Ruscha nomlar haqida" kitobida shaxs ismlari turli xil millatlar tarixini ifodalaydi, ularda urf-odatlar, madaniy qadriyatlar, tarixiy bosqichlar, millatlarning hayot tarzi, odamlarning ijodi, dinlar va aqidalar o'z aksini topadi, deb ta'kidlaydi.

S.I.Garagulya "Shaxs nomi madaniy va zamonaviy ingliz tilining tarixiy kategoriyasi sifatida" dissertatsiyasida madaniy jihatdan asoslangan quyidagi nomlarni keltiradi:

1. Milliy tan olingan nomlar (Oliver; Lincoln). Bunday ismlarda ko'pgina assotsiativ xususiyatlar (obraz, xatti-harakat, tashqi ko'rinish) bor.

2. Puritan nomlari (Love, Be-thankful, Faith, Hope). Puritan harakati puritan nomlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Nomlar sifatida "mercy", "grace", "charity", "prudence", "sage", "virtue", kabi abstrakt (mavhum) otlar ishlatila boshlandi. Ismlarning bunday yaratilishi muayyan vaqtda madaniyatning ustuvorligini ochib berdi.

3. Injil nomlari (Abraham, Israel);

4. Mashhur yozuvchilar, adabiy qahramonlar, aktyorlar, musiqachilarning ismlari, xonandalar (Elvis, Madonna, Rhatt) va boshqalar. Kulturologik funksiyaga asoslanib, antroponimlar milliy-madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi, chunki ularning jamoaviy va shaxsiy ahamiyati bevosita xalq yoki millat madaniyatidan kelib chiqadi.

Tildagi atoqli otlarning katta bir guruhini kishilarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Grekcha antropos – odam, inson, nomos – ot, ism, nom aniqlanishi demakdir. Antroponimlar xuddi boshqa so'zlar singari tildagi qadimiy hodisalardan. Buni insoniyatning qadimiy o'tmishiga oid xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma yodgorliklar tilida saqlanib qolgan kishi nomlari, afsonaviy va mifologik qahramonlarning nomlari yaqqol ko'rsatadi.

Kishiga ism berish va kishilarning atoqli otlari qadimiy tarixga ega bo'lib, bolani nomlashda ma'lum tarixiy davr, iqtisodiy-siyosiy hayot, ma'naviy turmush doirasining turli-tuman urf-odatlari muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, diniy tasavvur bolaning nomlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Turkiy xalqlarning V-VII asrlar tarixini o'zida ifodalagan O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari matnlarida uchrovchi bir qator ismlar

(Burisangmusht, Oqbosh, Qoraxon, Qorakur, Kultegin, Bilkaxoqon va boshqalar) turkiy xalqlarning eng qadimgi antropoleksemalaridir. Davrlar o'tishi bilan bir qator ismlar eskiradi va iste'moldan chiqadi, ularning o'rniga yangi-yangi atoqli otlar kirib keladi. Kishilarning orzu-umidlari, intilish va ideallari bilan bog'liq ismlar uzoq yashaydi. Hozirgi davr kishilari ismlarining asosiy qismini ana shunday nomlar tashkil qiladi.

Antroponimlar masalasi rus tilshunosligida ancha keng va har tomonlama o'rganilgan. Bu soha doirasida T.F.Vedina, I.M.Ganjina, Yu.Fedosyuk, A.V.Superanskaya, M.V.Karpenko, A.V.Suslova, T.V.Toporova, N.A.Baskakov, O.I.Fonyakova, L.M.IIjetinlar bir qator qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Turkologiya va o'zbek tilshunosligida esa Sh.Zafarov, M.Odilov, Ya.Menajiev, X.Azamatov, E.Begmatov, E.Qilichev, M.Shamsieva, I.Xudoynazarov, U.Nosirov va boshqa olimlar bu borada qimmatli tadqiqotlar amalga oshirishgan.

O'zbek tili lug'at boyligining kattagina qismini insonlarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Antroponim (lotincha: antropos - odam, onima - ism, nom) kishi nomi demakdir. Kishi nomlariga xos xususiyatlarni o'rganuvchi onomastikaning bir bo'limi antroponimikadir. Antroponimlar til lug'at tarkibida o'z o'rniga va tizimli xususiyatlariga ega. Yuqorida qayd qilinganidek, har bir onomastik tizim yana mayday tizimchalarga bo'linadi. Jumladan, atoqli otlar sistemasiga kiruvchi antroponimlar ham o'z navbatida boshqa mayda sistemalarga bo'linadi. Bular quyidagilar:

1. Ismlar;
2. Familiyalar;
3. Ota ismlari;
4. Taxalluslar;
5. Laqablar.

Ko'rinadiki, antroponimlar o'zbek tili leksik sistemasida ma'lum o'ringa ega. Faqat ungagina xos bo'lgan indikatorlar mavjudligi bilan ham xarakterlanib turadi. Xuddi shuningdek, antroponimlar semantik, uslubiy va yasali xususiyatlari bilan boshqa leksik birikmalardan ajralib turadi. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlarni sinxron va diaxron rejada system struktor va tarixiy-qiyosiy metod asosida olib borish kerak. Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ularda jamiyatning madaniyatli va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo'ladi. Ismlar ma'lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o'rni haqida ham xabar beradi. Har bir ism ma'lum bir sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. U ommabop yoki kam qo'llanuvchi bo'lishi mumkin. Ular bir nom o'z tarixi, "biografiyasi" va "geografiyasi"ga ega. Ismlarling nostilistikjihatdan real yoki to'qima bo'lishi mumkin. Ismlar o'z obyekt haqida ma'lum bir axborot harn berishi mumkin. Bu axborotlar 3 ko'rinishga ega:

- 1) lisoniy;

- 2) nutqiy;
- 3) qomusiy.

Til birligi (lisoniy) sifatida ular shaxslarni ataydi, individlarni bir-biridan ajratadi. Nutqiy informatsiyada esa soʻzlovchining shu ismga munosabatini ifodalaydi. Masalan: "Gitler nomini eshitsam, jinim qoʻzgʻaydi". Bu gapda nomga nisbatan salbiy munosabat ifodalanmoqda. Qomusiy axborot esa antroponim asoslangan applyativ maʼnoga yaqinlashadi: Gulnora, Gulandom, Gulruksor ismlarida gulga xos boʻlgan noziklik, yoqimlilik semalariga asoslaniladi. Ismlarda milliylik xususiyati aks etadi. Ismlar eskilik yoki yangilik boʻyogʻiga ega boʻladi. Applyativlardan koʻchgan ismlarda sinonimiya hodisasi mavjud (Toʻxtasin, Tursun) ammopolisemiya mavjud emas. Polisemiya hodisasi(A.V.Superanskaya) anchagina uchraydi. Masalan:Alpomish - Hakimbek; Ibn Sino - Avitsenna; Arestotel - Arastu kabi.

Koʻrinadiki, antroponimlar, eng avvalo, soʻzdir, til boyligining bir qismini tashkil qiladi. Shu bilan birga ular oʻziga xos qator xususiyatlarga ega. Taniqli tilshunos V.N.Nikonovning aytishicha: "Bir biridan ajralmas amaliy va nazariy vazifalarning mavjudligi bilan antroponimika baxtlidir". Shuning uchun ham antroponimlarga qiziqish, uni oʻrganish qadimiy tarixga ega.Yuz yillar davomida qator antroponimik tadqiqotlar yaratildi. Natijada kishi ismlarini oʻrganuvchi fanantroponimika vujudga keldi. Bu sohaga bagʻishlab xalqaro onomastik konferensiyalar oʻtkazildi.

Kishilar chaqaloqqa berilgan nom uning hayotiga, taqdiri va baxtiga katta taʼsir koʻrsatadi deb ishonganlar. Bu kabi tasavvurlar nom kishining mohiyatidir, ism kishining oʻziga oʻxshaydi degan notoʻgʻri tushuncha bilan bogʻliq. Shu sababli ham kishilar ongida "xosiyatli va xosiyatsiz " ismlar mavjudligi haqida turli ishonchlar yuzaga keladi. Bunday ishonchning xilma- xil koʻrinishlari turli millat onomastikasidagi ismlarda va bolaga nom berish odatlarida yorqin koʻrinadi. Masalan, karagaslarda vafot etgan odamning nomini yangi tugʻilgan chaqaloqqa qoʻyishmaydi. Shuningdek, goldarning oʻz bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham bejiz emas. Xosiyatli nom kishini baxtli qiladi, bolada yaxshi xislatlarni uygʻotadi. Yomon nom esa kishiga baxtsizlik, kasallik, oʻlim, ofat keltiradi deb hisoblashadi. Keltirilgan odatlar yuzasidan olimlardan V.N.Vasilyev, P.P.Shimkevich, Y.L.Layants, D.K.Zeleninlar qiziqarli materiallarni toʻplashgan.

Bolaga ism tanlashda oʻtmish ajdodlar,ota-bobolarga ism sifatida xizmat qilgan atoqli otlarga murojaat qilish, chaqaloqqa nomni oʻsha otlar orasidan saylashga intilish dunyoning turli qitʼalarida yashovchi xalqlarning keng amal qiluvchi rasm-rusumlaridandir. Bu odatning oʻtmishda Saxalin, Bering boʻgʻozi hamda Afrika qitʼasida yashovchi bir qator xalqlarda uchrashi mavjud adabiyotlarda qayd etilgan. Bu odatga Oʻrta Osiyo xalqlari ham amal qiladilar. Tabarruk ismlar qatoriga islom dini bilan bogʻliq qator nomlar kiradi. Bularning asosiy qismi arabcha nomlardir. Ammo

o'zbek tilining turkiy qatlam ismlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni quyidagi guruhga ajratish mumkin:

1. Ism bag'ishlovlar (memorativlar) O'zbek tili antroponimiyasining turkiy qatlamida quyidagi memorativ ismlar uchraydi:

1. Osmoniy jismlar nomidan yasalgan ismlar: Yulduz, Oyxon, Kuntug'mish

2. Turli tabiat hodisalari va stixiyalari nomidan yasalgan: Bo'ron, Yashin.

3. Turli geografik obyektlarning nomlaridan yasalgan nomlar: O'rmon, Daryo.

4. Hayvon va qushlarning nomi bilan aloqador ismlar: Qo'chqor, Lochin.

5. Turkiy qabila va urug'larning nomidan yasalgan antroponimlar, bu nomlarga o'zbekcha va turkiy xalqlar uchun mushtarak bo'lgan etnonimlardan yasalgan ismlar kiradi: Do'rmon, Barlos.

Antroponimlarga qo'shilish xususiyatiga ko'ra indikatorlar quyidagilarga bo'linadi:

1. erkaklar ismiga xos: jon, xon, bek, sher, arslon.

2. ayollar ismiga xos: oy, oyim, beka, gul, pari.

3. erkak va ayol ismiga qo'shilishiga ko'ra betaraf bo'lgan indikatorlar: jon, xon.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М.: Индрик, 2005. – 1040 с.
2. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – В.
3. Веди́на Т.Ф. Словарь личных имен. – М., 2000.
4. Ганжина И.М. Словарь современных русских фамилий. – М., 2001.
5. Федосюк Ю. Русские фамилии. – М., 1986. – 240 с.
6. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М., 1973.
7. Карпенко М.В. Русская антропонимика. – Одесса, 1970. – 42 с.;
8. Имя собственное в художественной литературе // Филологические науки. 1986. № 4. – С.
9. Суперанская А.В., Сулова А.В. Современные русские фамилии. – М., 1991. – 176 с.; Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М., 1985.
10. Топорова Т.В. Культура в зеркале языка: древнегерманские двучленные имена собственные.